

BO'LAJAK PEDAGOG VA PSIXOLOGLARNI INGLIZ TILIDA KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA QO'YILGAN ZAMONAVIY TALABLAR

To'ychiyev Umidjon G'ulomjon o'g'li

Namangan tuman ixtisoslashtirilgan maktab ingliz tili fani o'qituvchisi

gmail: utuychiyeu092gmail.com, tel: +998 90 554-09-18

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalariga ingliz tili fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, talabalarni kasbga yo'naltirish, shuningdek, pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalariga ingliz tilida kasbiy va sohaviy auntetik matnlarni o'qishni o'rgatishdagi mavjud muammolar muhokama qilingan.

Kalit so'zlar. Pedagog, psixolog, kompetensiya, zamonaviy talablar, kasbiy malaka, nutqiy ko'nikma, vaqt me'yorlari.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida jahon andozalariga javob beradigan yuksak malakali mutaxassis kadrlarni yetkazish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kundan boshlab xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Bo'lajak pedagog va psixolog mutaxassislarni kasbga tayyorlash tizimida ingliz tili o'qitish muhim tarkibiy qismlardan biri maqomini egalladi va oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining umumiy madaniyatini rivojlantirishda ingliz tilini mukammal egallashni taqozo etadi [1: 2.].

Adabiyotlar tahlili. Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalarida kasbiy malakalarni rivojlantirishda ularni ingliz tilidagi autentik materiallardan foydalanish, talabalarning ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyasini rag'batlantirish, o'rganilayotgan o'quv materiali bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish sifatini oshirish, ingliz tili o'qitishda tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, bilish faolligini oshirish, til o'rgatishda shaxsiy va guruh shaklidagi mustaqil ishlarni tashkil etish, ingliz tili o'qitishda kasbiy va sohaviy yo'naltirilgan ta'lim o'zgaruvchanligini ta'minlash, nazariy va amaliy tavsifdagi fanlararo aloqalarni o'rnatish, talabalarning reseptiv, produktiv, nutqiy faoliyat va ijodiy salohiyatni rivojlantirish, ta'lim jarayonida ijobiy hissiy munosabatni shakllantirish, o'quv materiallarini o'zlashtirish strategiyasining umumiy ko'nikma va malakalarini egallash imkonini beradi.

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish asosida nutqiy ko'nikmalarni oshirish

№	Nutq faoliyat turlari	Kasbga oid nutqiy faoliyat turlariga doir dasturiy talabalar
1	Gapirish ko'nikmasi bo'yicha	1. Ko'rish va o'qish orqali idrok etilgan kasbiy va sohaviy mavzularga oid o'quv materiallari bo'yicha monologik-bayon, monolog-xabar, monolog-mulohazalarga doir muloqotlarda qatnashish; 2. Ko'rgan va o'qigan kasbiy va sohaviy mavzularga oid o'quv materiallari asosida muloqotlarda qatnashish; 3. Kasbiy va sohaviy muloqotda nutqiy etiket me'yorlariga rioya qilgan holda ko'rgan va o'qigan ma'lumotlari bo'yicha dialog-fikr almashish va dialog-intervyu suhbatni boshlash, olib borish va unda qatnashish; 4. Kasbiy va sohaviy mavzularga oid ma'lumotlarni so'rash, qayta so'rash, jumlani qayta tuzish; 5. Kasbiy va sohaviy mavzularga oid ko'rgan va o'qigan ma'lumotlari bo'yicha qisqa yoki batafsil axborotlarni tayyorlash; 6. Kasbiy va sohaviy mavzularga oid ko'rgan va o'qigan ma'lumotlari bo'yicha o'z nuqtai nazarini bayon qilish.
2	Tinglab tushunish ko'nikmasi bo'yicha	1. Ijtimoiy-siyosiy, kasbiy va sohaviy mavzulardagi autentik matnlar hamda pedagogika va psixologiya yo'nalishiga doir sohaviy leksikadan foydalangan holda matnlarning asosiy mazmunini tinglab tushunish; 2. Murakkab bo'lmagan ijtimoiy-siyosiy, kasbiy va sohaviy mavzulardagi autentik matnlarning (xabarlar, hikoyalar) asosiy mazmunini tushunish; 3. Ijtimoiy-siyosiy, kasbiy va sohaviy mavzulardagi autentik matnlardagi pedagogika yo'nalishiga oid sohaviy leksikadan foydalangan.
3	O'qish ko'nikmasi bo'yicha	1. Kasbiy va sohaviy mavzulardagi autentik matnlarga qo'yilgan vazifalarga muvofiq axborotlarni izlash; 2. Murakkab bo'lmagan ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ommabop, ilmiy matnlar, blog/veb-sahifalarning asosiy mazmun-mohiyatini tushunish (reklama va axborotli kitobchalar, risola/ prospektlar); 3. Kasbiy leksikadan foydalangan holda ijtimoiy-siyosiy va sohaviy mavzulardagi autentik matnlarni o'qib tushunish; 4. Axborot va reklama tavsifidagi kasbiy va sohaviy mavzulardagi autentik matnlardan talab qilinayotgan muhim axborotlarni ajratib olish.
4	Yozuv ko'nikmasi bo'yicha	1. Kasbiy va sohaviy yo'nalishdagi autentik shakl va namunalarni to'ldirish (anketa, viza va boshqalar); 2. Kasbiy va sohaviy mavzularga oid asosiy fikr-mulohaza hamda faktlarni qayd qilish (video va matnli bichimdan); 3. Tarjimai hol (Curriculum Vitae/Resume), ishga qabul qilishda kerak bo'ladigan yo'llanma xatlarini yozish; 4. Yozma ravishdagi loyihaviy vazifalarni bajarish (taqdimot, reklama va axborotli buklet, poster va boshqalarni tayyorlash), kasbiy va sohaviy mavzularda ilmiy maqolalar tayyorlash.

Jadvalda aks etganidek, pedagogika va psixologiya yoʻnalishi talabalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish asosida nutqiy koʻnikmalarni oshirish ularning mustaqil faoliyatiga zamin yaratadi. Ular pragmatik tavsifdagi shakl va namunalarni toʻldirish, oʻrganilayotgan muammo boʻyicha asosiy fikr-mulohaza va faktlarni qayd qilishga oʻrganib borishadi. Talabalarning kasbiy koʻnikma va malakalari ularning ingliz tili boʻyicha avvaldan egallagan tayanch bilimlari asosida shakllanadi. Talabalarning ingliz tilidagi kasbiy va sohaviy nutqini oʻstirish ularning maktab davrida oʻzlashtirgan koʻnikma va malakalariga tayanadi [3; 4; 5:27-34, 8:24-25.]. Shunga koʻra kasbiy bilim va koʻnikmani egallash natijasida kasbiy malaka shakllanadi. Oʻzbek (ona) tilidan oʻrganilgan bilim, koʻnikma va malakalar hamda shu tildan orttirilgan har qanday nutqiy tajriba ingliz tilni oʻrganishga yordam berishi oʻqitishda transpozisiya hodisasi sodir boʻladi. Aksincha, salbiy taʼsir koʻrsatishi, yaʼni xalaqit berishi esa interferensiya deb ataladi. Til materiallari toʻqnashuvidan kelib chiqadigan uch xil interferensiya mavjudligi prof. J.Boʻronov tomonidan eʼtirof etilgan. Olimning taʼkidlashicha, ingliz til oʻqitish-oʻrganishdagi bosh maqsad kommunikativ layoqatni shakllantirishdan iborat boʻlishi kerak [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Ingliz til oʻqitish jarayonida talabalarning kasbiy malakalarini shakllantirishda alohida masʼuliyat bilan yondashish talab etiladi. Oliy maktab sharoitidan kelib chiqib, talabalarning maktabda, kollejda yoki liseyda olgan bilim saviyasi, nutqiy tayyorgarlik darajasini inobatga olib, til materialini toʻgʻri tanlash alohida ahamiyat kasb etadi. Ingliz til oʻqitishda til materialini tanlash murakkab jarayon hisoblanadi: Birinchidan, til materiallari koʻp. Biroq, pedagogika va psixologiya yoʻnalishida ingliz tili oʻqitishga ajratilgan vaqt meʼyori oʻquv soatlari cheklangan. Ikkinchidan, pedagogika va psixologiya yoʻnalishida talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirishda tilning barcha sohalarini mukammal oʻrgatish-oʻrganish zarur emas. Boʻlajak mutaxassislar oʻz kasblari doirasida ingliz tilida muloqot qila olishlari uchun etarli materialnigina oʻrganish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, metodik adabiyotlar tahliliga koʻra, kasbiy va sohaviy maqsadga yoʻnaltirilgan (English for Specific purposes) muayyan til materialini oʻrgatish orqali nutq faoliyatini tashkil etish oʻrinlidir. Bu esa boʻlajak mutaxassislarning kasbiy malakalarini rivojlantirishda oʻz samarasini beradi. Pedagogika va psixologiya yoʻnalishida taʼlim olayotgan boʻlajak mutaxassislar oʻzlari tanlagan sohalar boʻyicha umumiy pedagogika, kasbiy psixologiyadan bilimlarini oshirib, ularni oʻzlarining tanlagan sohalariga bogʻliq holda oʻrganib boradilar. Oʻz faoliyatlari davomida talabalar tanlagan sohalar boʻyicha mutaxassis sifatida shakllanib, ingliz tilida muloqotni samarali amalga oshirish kompetensiyasiga ega boʻladilar.

Ingliz tili talabalarni ijtimoiylashuviga xizmat qiladi va etuk mutaxassis boʻlish imkonini beradi. Ingliz tili shaxsni shakllantirishda jamiyat ehtiyojini qondirishda yuqori potensialga ega. Ingliz tili oʻrgatish nafaqat bilimni namoyon etadi, balki talaba

shaxsiga bevosita ta'sir o'tkazadi. Ingliz tili shaxsni intellektual, madaniy va kasbiy rivojlanishiga manba bo'ladi va jamiyatni ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy o'sish omillaridan biri hisoblanadi. Har qanday tilni o'rganish til sohibi madaniyatini bilish vositasi hamda shaxsni kommunikativ madaniyatini shakllantirish demakdir deb ta'kidlaydi [7, 196-197].

Tahlil va natijalar. Ingliz tili o'qitish jarayonida kommunikativ maqsadni amalga oshirish muhim hisoblanadi. Ta'lim oluvchi ingliz tili vositasida kerakli va zaruriy axborotlar bilan fikr almasha bilishdan iborat. Bizga ma'lumki, to'rtta nutq faoliyatini yaxshi egallagan shaxs axborotni gapirish va yozma nutq orqali etkaza olishi kommunikant (muloqotdosh) hisoblanadi. Ingliz tili bo'yicha darsliklarni o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularda berilgan mavzularning xilma-xilligi, ya'ni pedagogika va psixologiya yo'nalishiga oid kasbiy va sohaviy matnlarni o'qish, tili o'rganilayotgan mamlakatdagi yoshlarning hayoti, urf-odati, milliy bayramlari va mashhur kishilari haqida batafsil ma'lumotlarning berilishi ham bo'lajak mutaxassislarning dunyoqarashini yanada kengayishiga zamin yaratar ekan. Masalan, "Buyuk Britaniya va AQSH ta'lim tizimiga oid matnda (Educational system of Great Britain and the USA)" Buyuk Britaniya va AQSH davlatlarining ta'lim tizimi, ulardagi o'xshashlik va farqlar bilan tanishib boradilar va o'z o'rnida ikki davlat ta'lim tizimidagi jarayonlar o'zaro bir-biri bilan qiyoslanadi.

Bu esa bo'lajak mutaxassislarning ingliz tiliga bo'lgan qiziqishi ortishiga va ularning dunyoqarashini shakllanishiga xizmat qiladi. Ma'lumki, ingliz tilini o'rgatish turli xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ular o'rtasida do'stlik aloqalarini mustahkamlaydi, ularning dunyoqarashini boyitadi. Pedagogika va psixologiya yo'nalishida ingliz tili o'rgatishdan maqsad talabalar bo'lajak kasbiy faoliyatlarida o'zlari o'rganib kelayotgan ingliz tildan amaliy foydalana olishdir. Talabalar o'zlari tanlagan sohalari hisoblangan pedagogika va psixologiya yo'nalishi bo'yicha ingliz tilda ham ma'lumot ola bilishlari, kasbiy va sohaviy matnlarni o'qib tushuna olishlari, ilmiy konferensiyalarda ishtirok eta bilishlari kerak bo'ladi. Pedagogika va psixologiya yo'nalishida ingliz tilini kasbiy yo'naltirilishi, birinchidan, "ingliz tili" o'quv predmetining mutaxassislik ixtisoslik va kasbiy fanlari bilan integrasiyalashuvi; ikkinchidan, ingliz tili o'qituvchisi oldida shunday vazifa turadiki, fanlararo aloqani o'rnatish asosida ingliz tilidan foydalanish natijasida talaba kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarining rivojlantirilishi; uchinchidan, bo'lajak mutaxassis uchun zaruriy kasbiy ko'nikma, malakalarni rivojlantirishda ta'limning zamonaviy axborotva pedagogik texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi.

Mavjud didaktik prinsiplar ingliz til o'qitishga tatbiq etiladi, biroq ulardan "Ingliz tili" o'quv predmetida foydalanish o'ziga xos xususiyatlarga egadir. O'ziga xoslik ingliz til o'rgatish tizimida namoyon bo'ladi [9:221-121].

Ingliz tili ta'limida talabalarning kasbiy malakalarini shakllantirishda fanlararo aloqadorlik mexanizmidan foydalanish yaxshi samara beradi. Ingliz til ta'limining o'ziga xos didaktik xususiyatiga ega. Bu borada professor Ye.S.Polatning fikricha, ingliz tilning didaktik xususiyati shundan iboratki, unda fan asoslari o'qitilmaydi, balki nutqiy faoliyat turlari bo'yicha malaka o'rgatiladi. Ingliz tili o'rgatishdan maqsad kommunikativ kompetensiyani egallashni nazarda tutadi [6]. Ingliz tilini o'rgatishda bo'lajak mutaxassisning nutq faoliyati turlariga bo'lgan real ehtiyojidan kelib chiqishi hamda shu orqali ta'lim maqsadlari va usullarini talabani kasbiy marralarni egallashi uchun mos ravishda tanlash imkoniyatini berishi bilan ahamiyat kasb etadi. Birgina kasbiy va sohaviy mavzular asosida talabaga ingliz tili darsida ham bo'lajak kasbiga oid ma'lumotlarning berib borilishi ularning ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishishimizda muhim omil bo'lib, o'z samarasini beradi. Bu borada ingliz tili o'qituvchisi talabalarning mutaxassis fan o'qituvchilari bilan uzviy bog'langan bo'lishi ko'zlangan maqsadga erishish osonroq kechadi. Bunday holda fanlararo integrasiya masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tili o'qituvchisi mutaxassis chiqaruvchi kafedra bilan birgalikda bog'liq ravishda fanlararo integrasiyaga amal qilib ish ko'rsa, biz ko'zlangan maqsadga tezroq erishilishi o'tkazilgan tajribalardan ayon bo'ldi. Demak, ta'lim jarayonida talabalarning kasbiy malakalarini hosil qilish va rivojlantirish uchun muayyan mashqlarni bajarish zarur bo'ladi. Mashqlarni bajarish natijasida talabalarda og'zaki va yozma nutqiy malakalar shakllanadi. Shuningdek, maqsadga erishishda, albatta, xotirani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Shunday qilib, pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalarida kasbiy malakalarni rivojlantirishda ingliz tilni egallash shaxs kamoloti uchun ahamiyatlidir. Ingliz tilini egallash orqali yoshlarni dunyoga xalqimiz ma'naviyati, madaniyati va san'atini, kasbiy va sohaviy yangiliklarini tanitish imkoniyati yaratiladi.

Ingliz tili bo'lajak mutaxassis saviyasini ko'tarish ham jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ekanligini davrning o'zi ko'rsatmoqda. Bizning fikrimizcha, ingliz til o'qitishni uzluksiz joriy etilishi hamda uning davomiyligini tashkillashtirish zaminida, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashdek ulkan vazifani amalga oshirish masalasi yotadi. Bo'lajak mutaxassislar ingliz tili yordamida turli kasbiy va sohaviy axborot resurslaridan keng foydalana olishlari imkoniyatiga ega bo'lishdan tashqari ularning intellektual salohiyatini rivojlanishiga hamda bo'lajakdagi kasbiy kompetensiyalarini shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Eng asosiysi, tanlagan sohasiga oid xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun zamin yaratadilar.

Xulosalar. Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalarida ingliz tili o'rgatishning asosiy maqsadi, o'qish va o'zining tor sohasi bo'yicha ma'lumot olish berishdir, ya'ni tanlangan sohadagi matnlarni o'qish (informasiya olish) va dastur doirasidagi og'zaki nutq mavzulari yuzasidan ingliz tilida fikr almashishdir. Shunday

qilib, O'zbekistonda pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalarida kasbiy malakalarni rivojlantirishga qo'yilayotgan zamonaviy talablar o'ziga xos innovasion strategiya asosida amalga oshirilmoqda. Ingliz tilini o'rgatishda talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirish ko'p bosqichli ta'limiy jarayon sifatida amalga oshirilmoqda. Talabalarning bilish faolligini rivojlantirish, mustaqil ishlarini tashkil etish, o'quv materialidagi muhim g'oyalarni saralash, tahlil qilish, qiyoslash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish muhim masalaladir.

Ingliz tilini amaliy egallash orqali talabalar nafaqat tili o'rganilayotgan mamlakatning tarixi, madaniyati, urf odatlari san'ati kabilar haqida ma'lumotga axborotga ega bo'lib boradilar, balki, mazkur jarayonda talabalar o'zlarining bo'lajak ixtisosliklari bo'yicha hamda kasbiy va sohaviy malakalarini rivojlantirib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrda Oliy majlisi murojaatnomasi//Pravda vostoka., 2017 yil 23 dekabr. -№ 248(28706) -B.2.
2. Buranov J. Tipologicheskiye kategorii i sravnitelnoye izucheniye yazikov: Avtoref. ... dok.filol. nauk. - M., 1979. - 48c.].
3. Isayeva O.N. Sushnost professionalno-oriyentirovannogo obucheniya studentovnefilologov inostrannomu yaziku: Vestnik SamGU, 2007.-№ 1. S-130.
4. Komarova Ye. V. Nekotoriye sposoby intensifikatsii prosessa obucheni inostrannomu yaziku v texnicheskom vuze// Sovremenniy nauchniye issledovaniya i innovatsii. 2015. №3.
5. Lyaxovskiy M.V. O nekotorykh bazisnykh kategoriya metodiki obucheniya inostrannim yazikom // Inostranniy yaziki v shkole. - 1973. - № 1. S.27-34,
6. Polat Ye.S. Osnovniye napravleniya razvitiya sovremennix sistem obrazovaniya / Ye.S. Polat (Attp [www.IOSO.ru/distant./](http://www.IOSO.ru/distant/)].
7. Saynazarov X. Obshcheye i chastnoye v metodike obucheniya inostrannim yazikom //Tezisi dokladov i soobshcheniy Respublikanskoy nauchno -metodicheskoy konferentsii po teorii i metodike prepodavaniya inostrannix yazikov v srednix shkolax, visshix i srednix pedagogicheskix zavedeniyax. -T., 1980.-S. 196-197.
8. Selevko G.K. Texnologicheskiy podxod v obrazovani // Shkolniye tekhnologii. - 2004.- №4.-S. 24-25.].
9. Safonova V.V. Izucheniye yazikov mejdunarodnogo obshcheniya v kontekste dialoga kultur i sivilizatsiy. -Voronej: Istoki, 1996.-237 s.